RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AT “ALOQABANK” DA ZAMONAVIY XODIMLARGA BO’LGAN TALABNI O’RGANISH VA TAHLIL QILISH

Tursunova Mastura Taxirovna
Muhammad Al-Xorazmiy Nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
“Menejment va marketing” kafedrasi katta o’qituvchisi
masturataxirovna1990@gmail.com
Sodiqova Mohistora Sodiq qizi
Muhammad Al-Xorazmiy Nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
“Menejment va marketing” kafedrasi magistranti
mohistoraxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot infratuzilmasining kadrlarga bo’lgan talablarini shakllanishi va yangi zamonaviy mutaxassislarni takomillashtirish yo’nalishlari va bu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri ko’rib chiqiladi. Chunki raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga ko’plab omillar ta’sir ko’rsatadi. Asosiy omillardan biri bu zamonaviy kadrlarga bo’lgan talabni shakllantirishdir. Maqolada kompaniyalarda zamonaviy kadrlarga bo’lgan talab o’rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalar, elektron hukumat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), raqamli texnologiyalar, mutaxassis, kadr, IT.

Abstract: This article examines the formation of the requirements for personnel of the digital economy infrastructure and the directions of improvement of new modern specialists and the impact of this process on socio-economic development. Because many factors affect the development of the digital economy. One of the main factors is the formation of demand for modern personnel. The article examines and analyzes the demand for modern personnel in companies.

Keywords: digital economy, information technologies, electronic government, information and communication technologies (ICT), digital technologies, specialist, personnel, IT.


Aksiyadorlik tijorat «Aloqabank» O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan 1994-yil 12-oktyabrda tashkil etilgan.

Bankning yuksak vazifasi - o’z mijozlariga ularning bizneslari talablariga javob beruvchi keng qamrovli bank xizmatlarini professional darajada taqdim etib, respublikada tadbirkorlikning mustahkamlanishiga ko’maklashish. Ushbu vazifani amalga oshirishda AT “Aloqabank” doimiy ravishda o’zining korporativ qadriyatlariga asoslanib faoliyat yuritadi.

AT “Aloqabank” Kadrlar siyosati - xodimlarni boshqarishning uzoq muddatli strategiyasi bo’lib, uning asosiy maqsadi – tizimni malakali va zarur yo’nalishga ixtisoslashgan mutaxassislar bilan ta’minlash, mas’uliyatli, sadoqatli, malakali xodimlarni tarbiyalash, ularning faoliyatiga ko’mak beruvchi tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy shart-sharoitlarni yaratishdir.

Bank rahbariyati yuqori malakali kadrlarni tanlab olish va jipslashgan jamoani shakllantirishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan. Bank xodimlari bilan ishlashda quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- xodimlar ishini samarali tashkil etish, yuqori sifatli ish muhitini yaratish va barcha ish o’rinlarini malakali kadrlar bilan ta’minlash;
- motivasiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning bank ishiga qo’shgan hissasi va professionallik darajasiga mos ravishda lavozimlarini oshirish va rag’batlantirishni yo’lga qo’yish;
- xodimlarni qo’llab quvvatlash va professionallik darajasini oshirishda, shuningdek, lavozimlarni oshirish istiqbollarini rejalashtirishda bank xodimlari faoliyatini baholashning zamonaviy usullarini qo’llash;
- yosh va umidli kadrlarga o’qish imkoniyatlarini yaratish va malakasini oshirish.




1-rasm. AT “Aloqabank” ning umumiy xodimlari soni.[178]

Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank” da Respublika bo’yicha jami 1387 nafar xodim faoliyat olib boradi. Lekin shtat bo’yicha 1507 nafar xodim mavjud bo’lishi kerak. Bundan ko’rinib turibdiki, umumiy 120 nafar xodimga ehtiyoj bor. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun AT “Aloqabank” bilan o’zining hamkorligidagi universitet bitiruvchi talabalari orasida suhbat o’tkazilyapti. Suhbatdan o’tgan talabalar esa


[178] Manba muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

to’g’ridan-to’g’ri stajirovkaga qo’yilmoqda. Shu va shu kabi ishlar olib borilishi orqali sekin-astalik bilan bo’sh ish o’rinlari to’ldirilmoqda.



2- rasm. AT “Aloqabank” xodimlari Respublika kesimida.[179]


Bu rasmda AT “Aloqabank”ning Bosh ofisidagi va Respublika bo’yicha filiallardagi xodimlar soni tasvirlangan. Demak, Bosh ofisda jami 373 nafardan **353 nafari** faoliyat yuritsa, filiallarda esa 1134 nafardan **1025 nafari** ishlaydi. Umumiy olganda, 26% xodim Bosh ofisda, 74% xodim filiallarda faoliyat yuritishadi.



3. rasm. AT “Aloqabank” ning filiallari bo’yicha xodimlarning umumiy soni.[180]

[179] Manba muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
[180] Manba muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi rasmdan ko’rish mumkinki, AT “Aloqabank” ning Respublika bo’ylab filiallarining rahbariyati uchun jami 227 nafar shtat birlik mavjud, lekin bugungi kunda 203 nafar xodim faoliyat olib boradi. 496 nafar xodim mutaxassis sifatida ish faoliyatini yuritishadi, lekin bu yerda ham 552 nafar shtat birlik avjud. Bank kassalarida 310 nafar shtat birlik mavjud bo’lib, shundan 290 nafar xodim hlaydi. Kichik xizmatlarda esa 45 nafar shtat birlik bo’yicha to’liq holatda odimlar faoliyat yuritadilar.




4. rasm. AT “Aloqabank” xodimlarining ma’lumoti bo’yicha ko’rsatkichlari. Oliy ma’lumotli xodimlarning ma’lum bo’limlardagi soni.[181]

Bu rasmdan ko’rish mumkinki, o’rta ma’lumotli xodimlar 38 nafar va bu umumiy xodimlar sonining 3% iga to’g’ri keladi. O’rta-maxsus ma’lumotli xodimlar esa 26%

[181] Manba muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ini tashkil qiladi va ular 367 nafardan iborat. Ma’lumoti oliy bo’lgan xodimlar umumiy xodimlar sonining eng yuqori 71% ini tashkil qilib, 982 nafardan iborat. Rasmda oliy ma’lumotli xodimlar kengroq tasvirlangan. Shundan ma’lumki, rahbariyatda 310 nafar xodim faoliyat yuritadi va oliy ma’lumotli xodimlarning 31% ini tashkil qiladi. Mutaxassislar esa rahbariyatdagi xodimlar sonidan deyarli 2 barobarga ko’p bo’lib, 617 nafarni tashkil qiladi, foizlarda hisoblansa, 63% ga to’g’ri keladi. Kassada ishlaydigan oliy ma’lumotli xodimlar 49 nafar va ular 5% ni tashkil qilyapti. 7 nafar xodim kichik xizmatlarda o’z faoliyatini olib boradi. Bu ko’rsatkich esa atigi 1% ni tashkil qilmoqda.




5. rasm. AT “Aloqabank” ma’lum bo’limlaridagi xodimlarning ma’lumoti bo’yicha umumiy ko’rsatkichlari.[182]

AT “Aloqabank” rahbariyatida jami 318 nafar xodim mavjud bo’lib, ulardan oliy ma’lumotli xodimlar 310 nafarni (97%), o’rta-maxsus ma’lumotga ega xodimlar 8 nafarni (3%) tashkil qiladi. O’z-o’zidan ma’lumki, rahbariyatda o’rta ma’lumotli xodimlar ishlamaydi. Bundan tashqari, turli mutaxassisliklarda 617 nafar (85%) oliy ma’lumotli, 87 nafar (12%) o’rta-maxsus ma’lumotli va 7 nafar (3%) o’rta ma’lumotli xodim faoliyat yuritadilar. Kassada 49 nafar (16%) oliy ma’lumotli xodim, 229 nafar (79%) o’rta-maxsus ma’lumotga ega xodimlar, 12 nafar (5%) o’rta ma’lumotli xodimlar ishlaydilar. Umumiy kichik xizmatda ishlaydigan xodimlarning 12%i -7

[182] Manba muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

nafari oliy ma’lumotli xodimlardir. 37 nafari o’rta-maxsus ma’lumotga ega bo’lib, 58% ni tashkil qiladi. 30% -19 nafar xodim esa o’rta ma’lumotli xodimlardir.



6. rasm. AT “Aloqabank” xodimlarining yosh bo’yicha ko’rsatkichlari.[183]

Rasmdan ko’rinib turibdiki, AT “Aloqabank” xodimlarining eng katta qismi, ya’ni, 42% i 30 yoshdan 39 yoshgacha bo’lgan xodimlardan iborat ekan. Bu 582 nafarni tashkil qilmoqda. Undan biroz farq qilgan holda, 520 nafar xodim 29 yoshgacha bo’lgan xodimlardir va u 38% ni band qiladi. 223 nafar xodim 40 yoshdan 49 yoshgacha bo’lib, ular 16% ni tashkil qiladilar. Qolgan 4% ni esa 50 yoshdan 60 yoshgacha bo’lgan xodimlar, soni aniq qilib aytilganda 62 nafar xodimlar tashkil qiladi.

AT “Aloqabank” da eng ko’p 30 yoshdan 39 yoshgacha bo’lgan xodimlar o’z ish faoliyatlarini olib boradilar. Ulardan 199 nafari rahbariyatda va 140 nafari kassada ishlaydi. Umumiy 229 nafar xodim mutaxassis sifatida, 17 nafar xodim esa kichik xizmatlarda faoliyat yuritadilar. 29 yoshgacha bo’lgan xodimlarning eng katta qismi, aniqroq qilib aytganda, 378 nafari mutaxassis sifatida o’z ish faoliyatlarini olib boradilar. Va ular ya’ni, 29 yoshgacha bo’lgan xodimlar rahbariyatda 41 nafarni, kassada 84 nafarni, kichik xizmatda esa 16 nafarni tashkil qiladilar (7-rasm).

[183] Manba muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

AT “Aloqabank” da o’rta yoshdan baland bo’lgan xodimlar ham o’z o’rinlariga ega. Jumladan, 40 yoshdan 49 yoshgacha bo’lgan xodimlarning 58 nafari rahbariyatda, 93 nafari esa mutaxassis sifatida faoliyat yuritadilar. Bundan tashqari, hatto kassa va kichik xizmatlarda ham ularning o’z o’rinlari bor. Jami 53 nafar 40 yoshdan 49 yoshgacha bo’lgan xodim kassada, 18 nafar xodim esa kichik xizmatlarda ishlaydilar. Shu o’rinda 50 yoshdan yuqori xodimlar ham mavjud bo’lib, ozcxilikni tashkil qilsalar ham, bankda o’z ish o’rinlariga ega. Hozirda rahbariyatda 20 nafar, mutaxassis sifatida 19 nafar, kassada 13 nafar va nihoyat, kichik xizmatda 10 nafar xodim ishlamoqda (7-rasm).



7. rasm. AT “Aloqabank” ma’lum bo’limlaridagi xodimlarining yosh ko’rsatkichlari. [184]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirib o’tilgan vazifalarning ketma-ketlikda bajarilgandan keyin, maqsadga erishish mumkin bo’ladi.

Shu bilan birga, izlanilgan bilimlar natijasida quyidagi takliflarni taqdim etildi:

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida zamonaviy kadrlarni tayyorlash, ta’lim berish va ularni malakasini oshirish.

[184] Manba muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Iqtidorli IT-mutaxassislarini o’qitish, qo’llab-quvvatlash va ularni targ’ib qilish hamda mamlakatdan iqtidorli qatlamning chiqib ketishi oldini olish uchun ularning rivojlanishiga imkoniyat yaratish;

raqamli iqtisodiyot, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy etish va rivojlantirish uchun mas’ul bo’lgan xodimlarni minimal ma’lumot darajasi va kasblar malakasi nuqtai nazaridan xodimlarning asosiy lavozimlari va ishchilarning kasblari klassifikatoriga rioya qilmasdan jalb qilish.

Davlat organlari xodimlarini malakasini oshirish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan va xodimlarning malakasini baholashning yangi mexanizmlaridan foydalangan holda masofadan o’qitish bo’yicha yagona elektron platformani yaratish;

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko’nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o’rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish;

Korxonada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun “Bir million dasturchi” loyihasini amalga oshirish.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni

2. https://aloqabank.uz

3. https://lex.uz/docs/5297046?ONDATE=18.02.2021&ONDATE2=29.0 7.2021 &action=compare